



**Received:** January 4, 2026  
**Accepted:** February 23, 2026  
**Available online:** February 25, 2026

## Nazokat Davletyarova

Mustaqil izlanuvchi  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## Nazokat Davletyarova

Independent Researcher  
Uzbekistan State World Languages University  
Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: davletyarovanazokat@gmail.com  
ORCID iD: 0000-0002-4963-2119

### **TIBBIYOT OTMLARI TALABALARINING INGLIZ TILIDA KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA CLIL YONDASHUVINING SAMARADORLIGI**

### **EFFECTIVENESS OF THE CLIL APPROACH IN DEVELOPING PROFESSIONAL ENGLISH COMPETENCE OF MEDICAL STUDENTS**

#### **ANNOTATSIYA**

#### **ABSTRACT**

Zamonaviy globallasuv sharoitida tibbiyot sohasida xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi, tibbiy axborotlarning asosiy qismi ingliz tilida taqdim etilishi hamda bo'lajak shifokorlarning global kasbiy muhitda faoliyat yuritish zarurati tibbiyot OTmlarida ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalasining dolzarbligini keskin oshirmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy tibbiy ta'limda klinik qaror qabul qilish, ilmiy axborotni tezkor tahlil qilish va xalqaro tajribani o'zlashtirish jarayonlari bevosita ingliz tilida amalga oshirilishi ushbu kompetensiyaning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, tibbiyot OTmlari talabarlari uchun ingliz tilini an'anaviy usullarda emas, balki kasbiy kontekstga integratsiyalashgan holda o'qitish zarurati innovatsion pedagogik yondashuvlarni, xususan CLIL (Content and Language Integrated Learning / Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitish) yondashuvini qo'llashni taqozo etadi.

Tadqiqotimizning asosiy maqsadi bo'lajak shifokorlarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda CLIL yondashuvining nazariy asoslari, lingvodidaktik mexanizmlari hamda amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun tibbiy ta'lim kontekstida kasbiy kompetensiya tushunchasining mazmuni tahlil qilindi, EMP (English for Medical Purposes) doirasida ingliz tilini o'qitishning xususiyatlari ochib berildi, soft CLIL yondashuvining asosiy

In the context of modern globalization, the expansion of international scientific collaboration in the field of medicine, the predominance of medical information presented in English, and the necessity for future doctors to operate in a global professional environment significantly increase the relevance of developing professional English competence in medical higher education institutions. Furthermore, in contemporary medical education, processes such as clinical decision-making, rapid analysis of scientific information, and the assimilation of international experience are largely carried out in English, which further enhances the importance of this competence. In this regard, the need to teach English to medical students not through traditional methods, but in an integrated professional context, necessitates the application of innovative pedagogical approaches, particularly the CLIL (Content and Language Integrated Learning) approach.

The main objective of this study is to determine the theoretical foundations, linguodidactic mechanisms, and practical effectiveness of the CLIL approach in developing the professional English competence of future medical specialists. To achieve this goal, the concept of professional competence in the context of medical education was analyzed, the specific features of teaching English within the framework of English for Medical Purposes (EMP) were identified, and the core principles of the soft CLIL approach were examined. Its effectiveness was evaluated through

tamoyillari aniqlanib, uning samaradorligi tajriba-sinov ishlari asosida baholandi.

Tadqiqot jarayonida nazariy (tahlil, qiyoslash, umumlashtirish) hamda empirik (anketa-so'rov, test, pedagogik tajriba-sinov) metodlardan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari Respublikaning uchta tibbiyot OTMda 1-bosqich talabalari ishtirokida tashkil etilib, nazorat va tajriba guruhlari kesimida olib borildi. Talabalarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyasi kasbiy leksika (vocabulary), kasbiy matnlarni tushunish (reading) va kasbiy yozma nutq (writing) ko'nikmalari orqali pre-test va post-test asosida baholandi.

Natijalar soft CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda an'anaviy metodlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, terminologik bilimlar, kasbiy matnlarni tushunish, yozma nutq hamda klinik tafakkur elementlarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Xulosa sifatida, CLIL yondashuvi tibbiyot ta'limida ingliz tilini kasbiy kontekstda o'qitishning samarali vositasi bo'lib, u talabalarining kommunikativ, terminologik va kognitiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni xalqaro kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, tibbiy ta'lim, ingliz tili ta'limi, CLIL yondashuvi, EMP, tibbiy diskurs, kommunikativ kompetensiya, terminologik kompetensiya, tajriba-sinov ishlari, klinik tafakkur.

## KIRISH

Bugungi zamon bilan hamnafas bo'lgan jamiyatda olib borilayotgan islohotlar mehnat bozorida o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni tahlil qila oladigan, raqobatli bozor sharoitida o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqqan holda amaliyotga tatbiq eta oladigan, shu bilan birga, kasbiy va shaxsiy faoliyatida mavjud stereotiplarni bartaraf etishga qodir bo'lgan malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda [Dvoretzkaya, 2004; 194]. Darhaqiqat, O'zbekiston ta'lim tizimida ham, ayniqsa, tibbiyot sohasida shunday kasbiy va ijtimoiy mobillikni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash eng birlamchi vazifalardan biri hisoblanadi.

Avvalambor, shuni qayd etishimiz lozimki, tibbiy oliy ta'limning asosiy maqsadi – bemor va aholining sog'liqni saqlash ehtiyojlariga yetarli darajada javob bera oladigan, malakali shifokorlarni tayyorlashdan iborat bo'lib, bu oxir-oqibatda

experimental research.

The study employed both theoretical methods (analysis, comparison, generalization) and empirical methods (questionnaires, tests, pedagogical experiment). The experimental research was conducted among first-year students at three medical higher education institutions, with participants divided into control and experimental groups. Students' professional English competence was assessed through pre-test and post-test results in vocabulary, reading, and writing skills.

The findings indicate that the soft CLIL-based instructional approach demonstrates higher effectiveness compared to traditional methods in developing students' professional English competence. Significant improvements were observed in terminological knowledge, comprehension of professional texts, writing skills, and elements of clinical thinking.

In conclusion, the CLIL approach serves as an effective pedagogical tool in medical education, facilitating the integrated development of students' communicative, terminological, and cognitive competences, and preparing them for successful participation in the global professional environment.

**Key words:** professional competence, medical education, English language teaching, CLIL approach, EMP, medical discourse, communicative competence, terminological competence, experimental research, clinical thinking.

to'g'ri va samarali natijalarga olib kelishi kerak [Magzoub et al., 2024; 1568]. Buning uchun esa kasbiy kompetensiyaning tizimli va samarali tarzda shakllantirilishi, shu bilan birga, sohaning, ayniqsa, tibbiyot sohasining xususiyatlari va malaka talablarini inobatga olgan holda mazkur kompetensiyani rivojlantirishga barcha ta'limiy chora-tadbirlarning uluksiz muvofiqlashtirilib borilishi maqsadga muvofiqdir.

### **Tibbiy ta'limda “kasbiy kompetensiya” va “klinik tafakkur” tushunchalari**

Amerikalik olimlar R.M. Epsteyn va E.M. Handert tibbiyot sohasida “kasbiy kompetensiya” tushunchasiga quyidagicha izoh beradi: “... bu kundalik amaliyotda aloqa, bilim, texnik ko'nikmalar, klinik fikrlash, hissiyotlar, qadriyatlar va mulohazakorlikni xizmat ko'rsatilayotgan shaxs va jamiyat manfaati yo'lida odatiy va oqilona tarzda qo'llashdir” [Epstein & Hundert, 2002; 226]. O'z navbatida, bu omilni unutmasligimiz darkor, chunki ingliz tili ta'limi misolida tibbiyot yo'nalishi OTMlari talabalariga chet tillarini o'rgatishning birlamchi mazmun-mohiyati tildan aynan “xizmat ko'rsatilayotgan shaxs va jamiyat manfaati yo'lida odatiy va oqilona tarzda qo'llash”da o'z aksini topadi. Jumladan, kasbiy kompetensiya asosiy klinik ko'nikmalar, ilmiy bilim va axloqiy rivojlanish negizida shakllanadi. U (1) kognitiv funksiya – real hayotiy muammolarni hal qilish uchun bilimni egallash va qo'llay olish; (2) integrativ funksiya – klinik kontekstda biotibbiy va psixoijtimoiy ma'lumotlardan foydalanish; (3) munosabatga oid funksiya – bemorlar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib borish; (4) hissiy/axloqiy funksiya – ushbu ko'nikmalardan oqilona va insonparvar tarzda foydalanish uchun iroda, sabr-toqat va hissiy ongli yondashuvga ega bo'lish kabi tarkibiy qismlardan iboratdir.

Mazkur komponentlar tibbiyot OTMlarida bo'lajak shifokorlar kasbiy kompetensiyasining har tomonlama muhim xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi. O'z navbatida, chet tilida o'zlashtirilayotgan o'quv materiallarining ayni komponentlar doirasida shakllantirilishi va foydalanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olib qaraganda, ko'plab mamlakatlarda tibbiy maqsadlar uchun ingliz tilini o'rgatishda real hayotiy vaziyatlar hisobga olinadi, ayniqsa bu jabhada ingliz tili ta'limi muayyan bir kontekst hamda aniq leksikaga yo'naltirilishini [Vepreva & Pechinkina, 2021; 174] tushunishimiz mumkin. Serbiyalik tadqiqotchi N.Milosavlevich ayni nuqtada barcha jarayonlarning tibbiy ingliz tilini o'qitish talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga, muammolarni hal qila olish va qaror qabul qilish kompetensiyalariga asoslanishini eng muhim ijobiy jihat [Milosavljević et al., 2015] sifatida baholaydi.

Krasnoyarsk davlat tibbiyot universiteti mutaxassisleri G.V. Yurchuk, V.A. Yurchuk va L.G. Nosova olib borgan ilmiy-amaliy kuzatishlari davomida shunday xulosaga kelishdi, ya'ni hozirgi vaqtdagi tibbiyot OTMlarida talabalarni tilga, ayniqsa chet tiliga oid tayyorlash amaliyotida kasbiy yo'naltirilganlik yetarli darajada hisobga olinmagan, natijada bu holat bo'lajak shifokorlarning zamonaviy sharoitlarda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishda qator muammolarni keltirib chiqarmoqda [Yurchuk i dr., 2014; 34]. Vaholanki, kasbiy kompetensiyaning oshirilishi ko'p jihatdan bo'lajak shifokorlar – talabalarda shakllantiriluvchi *klinik tafakkur* darajasiga bevosita bog'liq.

“Klinik tafakkur” tushunchasiga G.V. Yurchuk quyidagicha umumiy ta'rifni

bergan: “Klinik tafakkur – bu intellektual faoliyat bo‘lib, u orqali bo‘lajak shifokor quyidagi mantiqiy amallarni bajarish qobiliyatiga ega bo‘ladi: belgilarni aniqlash, tahlil va sintez qilish, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish hamda xulosa chiqarish” [Yurchuk i dr., 2014; 34]. Darhaqiqat, mazkur mantiqiy amallar tibbiy oliy ta‘limda ingliz tilini chet tili sifatida o‘rgatishning ta‘lim mazmunini belgilab olishda muhim rol o‘ynaydi, xususan, bu o‘qituvchilarga dars mashg‘ulotlarini maqsadli rejalashtirish va o‘quv materiallarini mantiqan izchil qilib tayyorlashda har tomonlama qo‘l keladi.

### **Tibbiyot OTMLarida ingliz tilini o‘qitish tamoyillari**

Xorvatiyaning Riyeka universiteti mutaxassisleri T.Tomak va M.Shendula-Pavelich tibbiyot talabalari ingliz tilini o‘rganishga muhtoj ekanliklari, bunga esa ingliz tilining ular uchun nafaqat ta‘lim olish, balki kelgusida o‘z ilmiy izlanishlarini nashr etishning asosiy vositasi ekanligiga alohida e‘tibor qaratishadi. Binobarin, hozirgi davrda ona tili ingliz tili bo‘lmagan har bir talaba yoki mutaxassis uchun tibbiyot sohasiga oid chiqayotgan adabiyotlar hamda materiallarning aksariyat qismi ingliz tilida ekanligi ingliz tilida so‘zlashuvchi shaxslar bilan solishtirganda nisbatan ancha murakkab va talabchan bo‘ladi [Tomak & Šendula-Pavelić, 2017; 152]. Dog‘istonlik mutaxassislardan biri X.A. Bashirova o‘z hamkasblari bilan birgalikda olib borgan ilmiy kuzatishlari asosida amalda tibbiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilini o‘zlashtirish darajasi talab darajasida emasligini qayd etib, zamonaviy pedagogik fan va amaliyotda talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda chet tilining o‘rni va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keskin tarzda sezilayotganligini qayd etishadi [Bashirova i dr., 2022; 220]. Ayni holatda esa tibbiy maqsadlar uchun o‘rgatiladigan ingliz tili ta‘limi samaradorligi uni tashkil etuvchi quyidagi tamoyillarga bevosita bog‘liqdir:

1. *Ehtiyojlar tahlili* tibbiy oliy ta‘limda ingliz tilini o‘qitishning birlamchi tamoyillaridan biri hisoblanadi, chunki ESP metodikasining asoschilaridan ikki mashhur olim T.Xatchinson va A.Uoters ESP kurslarining mazmuni talabalarning real kasbiy vazifalari asosida shakllantirilishi lozim [Hutchinson & Waters, 1987; 53-54]. Ya‘ni, tibbiyot, jumladan “Davolash ishi” ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun ingliz tili aynan nima uchun kerak degan savolni inobatga olgan holda o‘quv materiallari hamda vazifalarni ishlab chiqish uni umumiy ingliz tilini o‘rganish/o‘rgatish jarayonlaridan tubdan farqli ekanligini namoyon qiladi. Masalan, tibbiy maqsadlar uchun ingliz tilini o‘rganish kontekstida ehtiyojlar tahlili bemorlardan anamnez olish, simptomlarni so‘rash, tibbiy ko‘rsatmalar berish, yozma shaklda klinik hujjatlarni to‘ldirish va olingan tibbiy xulosalarni og‘zaki tarzda bayon qilishdek kasbiy kompetensiyalarni aniqlashda o‘z dolzarbligini oshiradi.

2. *Autentik materiallarga asoslanish* tibbiy maqsadlar uchun ingliz tilini o‘qitishda o‘quv materiallarining maksimal darajada autentik – real klinik vaziyatlardan olingan bo‘lishi lozim degan tamoyilni ifodalaydi. Ayni soha bo‘yicha tajribali mutaxassislar T.Dadli-Evans va M.J. Sent Jon bu kabi jabhalarda real kasbiy kommunikatsiyani modellashtiruvchi matnlar va dialoglardan amaliy o‘quv jarayonlarida foydalanishning samarador ekanligini o‘z tadqiqotlarida alohida qayd

etishdi [Dudley-Evans & St John, 1998]. Doktor-bemor suhbatlari, anamnez shakllari, kasallik tarixlari, klinik ko'rsatmalar ayni materiallar tarkibiga kiradi, natijada bunday materiallar faqatgina kasbiy leksikani emas, balki kommunikativ strategiyalarni ham shakllantirishga xizmat qiladi.

3. *Kasbiy diskursga yo'naltirilganlik* tibbiyot OTMlarida talabalarning ingliz tilida umumiy kompetensiyalar bilan chegaralanib qolmay, kasbiy diskursni o'zlashtirishga ham yo'naltirilishlari lozimligini ilgari suruvchi tamoyil hisoblanadi. Professorlar K.N. Kandlin va S.Kandlin tibbiy kommunikatsiya o'zining maxsus ssenariylari, misol uchun, diagnostik suhbat, simptomlarni baholash, davolash usullarini tushuntirish yoki murakkab holatlarda xabar yetkazish singari diskurs modellari bilan farqli ekanligini [Candlin & Candlin, 2003] ahamiyatga molik ilmiy-amaliy izlanishlari asosida isbotlashdi. Shunga ko'ra, tibbiyot OTMlari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda ayni diskurs almashuvlarini o'zlashtirish har tomonlama muhim.

4. *Janrga asoslangan o'qitish* tibbiyot OTMlari talabalarining tibbiy matnning pragmatik va struktur xususiyatlarini tizimli o'rganilashlari lozimligini ifodalovchi tamoyildir. Jumladan, ingliz olimi K.Xaylend o'zining ayni yondashuvga bag'ishlangan ilmiy asarlarida bildirgan fikrlariga [Hyland, 2006] qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, talabalarining kasbiy janrlar – klinik holat hisoboti (case report), bemorlar uchun ma'lumot varaqasi (patient information letter), SOAP (S – subyektiv ma'lumot, O – obyektiv ma'lumot, A – tahlil, P – reja) yozuvlari, yo'llanma xati (referral letter), chaqiruv xulosasi (discharge summary)ning tarkibiy tuzilishi, funksional vazifasi hamda til birliklari bilan birga ingliz tilini o'zlashtirishlari bugungi global ta'lim konteksti uchun maqbul tanlovdir.

5. *Kommunikativ yo'naltirilganlik* tibbiy maqsadlar uchun ingliz tilini o'rganishda talabalarni til birliklarini faqatgina yodlash orqali o'rgatishni emas, balki real kasbiy muloqot kontekstlarida samarali nutq faoliyatini qo'llay olishga chorlovchi muhim tamoyildir. T.Xatchinson, A.Uoters, K.N. Kandlin va S.Kandlinning ta'kidlashlaricha, kommunikativ yondashuv lingvistik bilimlar, shu jumladan, nutq strategiyalari, etik yondashuv, empatiya va faol tinglash kabi murakkab kompetensiyalar majmuasidir [Hutchinson & Waters, 1987; Candlin & Candlin, 2003]. Ushbu tamoyilga asosan amaldagi o'quv jarayoni shifokor-bemor, shifokor-shifokor va hamshira-shifokor o'rtasida olib boriladigan kommunikatsiya jarayonlarini modellashtiruvchi dialoglar, konsultatsiya ssenariylari, klinik suhbatlar hamda rolli o'yinlar; klinik qaror qabul qilishda zarur hisoblanuvchi savol berish, izohlash, tushuntirish, aniqlik kiritish, maslahat berish, empatiya bildirish kabi nutq strategiyalariga asoslanishi darkor.

6. *Ko'nikmalar integratsiyasi*, T.Dadli-Evans va M.J. Sent Jonning tadqiqot natijalariga ko'ra, tibbiy OTMlarida talabalarga barcha til ko'nikmalari (listening, speaking, reading va writing)ni o'zaro integratsiyada o'rgatishni ilgari suruvchi muhim tamoyillardan biri [Dudley-Evans & St John, 1998]. Binobarin, tibbiy vaziyatlar soha mutaxassislari – shifokorlardan tinglab tushunish, tezkor javob berish, o'qish orqali klinik ma'lumotlarni qabul qilish, shuningdek, yozma tibbiy hisobot tayyorlash kabi bir butunlikda rivojlantirilib boriladigan kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishni talab

etadi.

### **Tibbiy oliy ta'limda ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishdagi muammolar**

Tibbiyot OTMlarida ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida asosiy muammolardan biri sifatida *kasbiy til kompetensiya bilan umumiy til kompetensiyasi o'rtasidagi funksional uzilish* bilan bog'liqdir. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, umumiy tilni bilish kasbiy muloqotda samarali ishtirok etish uchun yetarli emas, chunki kasbiy diskurs o'ziga xos maqsadlar, janrlar va kommunikativ vaziyatlarga asoslangan bo'ladi. Xususan, I.A. Zimnyaya kompetensiyani "bilimlarning yig'indisi emas, balki faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik" sifatida talqin qiladi hamda uni amaliy nutq faoliyatisiz shakllantirib bo'lmazligini qayd etadi [Zimnyaya, 2004]. Bu holat esa tibbiy oliy ta'limda ingliz tili ko'pincha umumiy kommunikativ darajada qolib ketishini ilmiy jihatdan izohlaydi. Ikkinchi muhim muammo tibbiy kommunikatsiyada *termin – kontekst – vaziyat* bog'liqligining yetarli shakllantirilmasligi bilan bog'lanadi. Ya'ni, tibbiy terminlar aniq va qat'iy semantikaga ega bo'lsa-da, ularning real klinik vaziyatdagi qo'llanilishi kontekstga bog'liq holda o'zgaradi. Shu nuqtayi nazardan, rus psixolingvisti A.A. Leontyev nutq faoliyatining vaziyatga har tomonlama bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab, til birliklari faqat kommunikativ ehtiyoj paydo bo'lgan vaziyatdagina funksional ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi [Leontyev, 2003]. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, agar termin real kommunikativ vaziyat bilan bog'lanmasa, u nutqiy faoliyatga singib ketmaydi va natijada passiv bilim darajasida qolib ketadi. Uchinchi muammo sifatida ingliz tilida kasbiy muloqotning *rejalashtirilmagan va epizodik xarakterda* qolishi bilan bog'liqligi. Umuman olganda, tibbiyot OTMlarida ingliz tilidan foydalanish tizimli ravishda tashkil etilmasligi sababli talabalar ingliz tilida kasbiy muloqot tajribasini muntazam ravishda orttira olishmasliklari kuzatiladi. Vaholanki, M.Kanal va M.Sveyn kommunikativ kompetensiya nazariyasida kompetensiyaning shakllanishi doimiy muloqot tajribasi bilan bog'liq ekanligini bildirib, til bilimlari faqat real kommunikativ faoliyat jarayonida mustahkamlanishini qayd etishadi [Canale & Swain, 1980]. Ayni holat natijasida ingliz tilida kasbiy muloqot talabalar uchun tizimli faoliyat emas, balki alohida, tasodifiy holatlar bilan cheklanib qoladi. Bu esa kasbiy kompetensiyaning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tibbiy oliy ta'limda ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan muhim to'siqlardan yana biri *lingvistik qiyinchiliklarning aynan kasbiy diskurs darajasida* namoyon bo'lishidir. Ushbu qiyinchiliklar alohida til birliklarini bilish bilan emas, balki ularning kasbiy muloqotda qanday ishlatilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular talabalarning nutqiy faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

Tibbiyot sohasidagi inglizcha kasbiy diskursning murakkabligi, avvalo, tibbiy terminlarning semantik ixtisoslashuvi va sinonimik qatlamlari bilan izohlanadi. K.Xaylend ta'kidlaganidek, kasbiy diskursda terminlarning ma'nosi umumiy til doirasida emas, balki muayyan professional vazifalar va kommunikativ maqsadlar bilan belgilanadi [Hyland, 2000]. Shu bois tibbiy terminlarning yaqin ma'noli birliklari

kontekstga bog‘liq holda turli funksiyalarni bajaradi. Talabalar ushbu farqlarni yetarli darajada anglamagan holda terminlarni umumiy til mantig‘iga asosan qo‘llashadi, bu esa kasbiy nutqning aniqligi va ishonchligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

### **CLIL yondashuvining nazariy asoslari**

Nofilologik oliy ta‘lim tizimida chet tillarini o‘rgatish global xalqaro integratsiya, akademik mobillik hamda kasbiy kommunikatsiya talablaridan chiqqan holda yangi metodik yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Binobarin, aynan shu jihatlarni o‘zida mujassam etuvchi yondashuvlardan biri – bu CLIL. Bugungi kunda nofilologik yo‘nalishlarda chet tillarini fanlarga integratsiya qilish global miqyosda ikki asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda – CLIL va EMI (English Medium Instruction). Masalan, CLIL modeli, bir tarafdin, fan mazmunini o‘zlashtirishni qo‘llab-quvvatlash, boshqa tarafdin, chet tillarini real kasbiy kontekstda rivojlantiradi. Vaholanki, Yevropa komissiyasining topshirig‘iga binoan tayyorlangan hisobotlarda CLIL “tilni faqat dars soatlariga bog‘lab qo‘ymay, butun bir ta‘lim jarayonini til hamda mazmun integratsiyasi orqali boyituvchi yondashuv” sifatida ta‘riflanadi [Marsh, 2002]. Shu bilan birga, rus olimlari L.V. Chistobayeva va Y.V. Kiselevaning ta‘biri bilan aytganimizda, CLIL yondashuviga bo‘lgan qiziqishning kun sayin ortib borayotganligi kasbiy ta‘limda integratsion jarayonlarning kengayishi, ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish zarurati, shu jumladan, bakalavriatura bosqichida kasbiy tayyorgarlik masalasida kompetensiyalar majmuasini shakllantirishning eng maqbul yo‘llarini izlash bilan bevosita bog‘liqlidir [Chistobaeva & Kiseleva, 2019; 129].

Xalqaro tajribalarga tayanadigan bo‘lsak, Yevropa ta‘lim siyosati doirasida CLIL/EMILE (frans. Enseignement d’une Matière par l’Intégration d’une Langue Étrangère) loyihalari aynan nofilologik yo‘nalishlarda fanlarni chet tilida o‘qitishning strategik yo‘nalish sifatida qaralayotganligini ko‘rsatadi. Finlandiyalik D.Marsh CLILning Yevropa Ittifoqi darajasida “til siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri” sifatida baholaydi [Marsh, 2002]. Bundan tashqari, mazkur yondashuv XXI asr ta‘limidagi “yirik tendensiya” sifatida talqin etilib, uning maktab, kollej va oliy ta‘lim tizimlarida uzluksiz kengayib borayotgan integratsion model ekanligi [Coyle et al., 2010] xususida ham e‘tiroflar mavjud. P.Mehisto, D.Marsh va M.X. Frigols birgalikda olib borgan ilmiy izlanishlarida CLIL yondashuvining nofilologik sohalarida qo‘llanilishi oliy ta‘limda “raqobatbardosh mutaxassis tayyorlashning muhim omili” [Mehisto et al., 2008] sifatida qayd qilishadi. Bunday holatda CLIL chet tili darslarini odatdagi “General English” darajasidan chiqarib, uni kasbiy mazmun bilan bog‘lash kerakligini tasdiqlaydi. D.Koyl va hammualliflar ushbu yondashuvning tarkibiy xususiyatlarini 4C modeli orqali bayon qilgan – Content, Communication, Cognition, Culture: “Mazmun (content) bilan bog‘liq topshiriqlar kommunikatsiya (communication) jarayonida yuqori darajadagi fikrlash (cognition) talablari va madaniyatlararo konteksti (culture) bilan birgalikda shakllantiriladi” [Coyle et al., 2010]. Mazkur 4 komponentning CLIL yondashuvi asosida uyg‘unlashuvi ham o‘qituvchi, ham talabalarning chet tili ta‘limiga oid nazariy-amaliy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion strategiyasi deyishimiz mumkin.

### **CLIL yondashuvining modellari (soft va hard CLIL)**

CLIL yondashuvining 4C modeli orqali metodologik ustuvorligini K.Dalton-Puffer orqali izohlar ekan, unda “til faqat vosita, mazmun esa kognitiv jarayonni faollashtiruvchi markaziy komponentga aylanishi”ni [Dalton-Puffer, 2011] alohida e’tirof etadi. Ispaniyalik tadqiqotchi A.Linyares esa o‘zining hammualliflikdagi ilmiy asarida 4C modelining amalda til funksiyalarini (*explain, justify, describe, evaluate*) mazmun bilan bog‘lagan holda rivojlantirishga [Llinares et al., 2012] yo‘l ochishini ta’kidlagan. Xalqaro ta’lim jarayonlari kontekstida nofilologik oliy ta’limda CLIL yondashuvining amaliy modeli ikki asosiy ko‘rinishda talqin etiladi: (1) soft CLIL va (2) hard CLIL. Avvalo, soft CLIL modeli sohaga oid fan mazmunining ayrim elementlari chet tili darslari doirasida integratsiyalanishiga asoslanadi. Xususan, unda diqqat markazida chet tili turadi, fan mazmuni esa til o‘rgatish uchun ma’noli kontekst va nutq vaziyatini ta’minlovchi vosita sifatida qabul qilinadi. Ispaniyalik olim M.L. Peres-Kanyado soft CLILni lingvodidaktik nuqtayi nazardan “nisbatan xavfsiz model” sifatida baholaydi [Pérez-Cañado, 2011], chunki u til kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmagan talabalarda ham mazmun va til integratsiyasini bosqichma-bosqich hamda soddalashtirilgan o‘quv materiallari orqali amalga oshirishda o‘qituvchiga ko‘mak beradi. P.Mehisto ham soft CLILda chet tili o‘qituvchisidan chuqur fan ekspertligi talab qilinmasligi hamda mazmun metodik jihatdan moslashtirilgan shaklda taqdim etilishi mumkinligini [Mehisto et al., 2008] bildirishadi. Bundan tashqari, ushbu modelda o‘quv materiallari va topshiriqlarning lingvistik murakkablik darajasi talabalarning til darajalariga mos ravishda kamaytirilishi mumkin bo‘ladi va, albatta, ularning kasbiy soha – tibbiyot bilan bog‘liqligi saqlab qolinadi. Finlandiyalik professor T.Nikula ushbu jarayonni “language-driven subject work” deya izohlaydi [Nikula, 2007], ya’ni chet tili darslarida fan mazmuni bilan ishlashda birlamchi bosh maqsad o‘rganilayotgan chet tilini rivojlantirish ko‘zlangan holda tashkil etilishi mumkin. Misol uchun, ingliz tili dars mashg‘ulotlaridagi bemor shikoyatlarini tasvirlovchi matnlar, oddiy anamnez namunalarini o‘qish, kasallik nomlari va asosiy simptomlarni nomlash yoki qisqacha tavsiflash kabi vazifalar. Ayni jihatlarni hisobga olgan holda aytishimiz mumkin, tibbiyot OTMLarida ingliz tilini CLIL yondashuvi yordamida o‘rgatishda soft CLIL modeli “yumshoq o‘tish” mexanizmi sifatida qabul qilinishi mumkin. Natijada bu shaklda til markazga qo‘yiladi va fan mazmuni bosqichma-bosqich jalb etiladi, bu orqali talabalarda murakkabroq shakl hisoblangan “hard CLIL”ga o‘tishda zarur bo‘lgan poydevorni yaratish mumkin bo‘ladi. Hard CLIL modeli ayni yondashuvning yanada chuqurlashgan, aniqroq qilib aytganda, “content-led” shakli bo‘lib, tibbiy OTMLarida mutaxassislik fanlari to‘liq chet tilida o‘qitiladi. Bu holatda endi til vosita vazifasini bajaradi va dars mashg‘ulotlarining diqqat markazida fan mazmuni, ya’ni kontentning o‘zlashtirilishi turadi. Umuman olganda, bugungi kunda soft CLIL va hard CLIL modellari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, ular bir-birini to‘ldiruvchi hamda bosqichma-bosqich bog‘langan yondashuvlar sifatida nofilologik oliy ta’lim kontekstida keng qo‘llanilmoqda. Qisqa qilib aytganda, soft CLIL talabalarning til va mazmun integratsiyasiga nisbatan psixologik va lingvistik tayyorgarliklarini shakllantirsa, hard CLIL mazkur tayyorgarliklarni kasbiy, akademik

va fanlararo kompetensiyalar darajasida chuqurlashtiradi.

Darhaqiqat, CLIL yondashuvi EMP ta'limida natijalarga yo'naltirilgan ta'lim modeliga asoslanadi. Avstraliyalik ta'lim psixologi J.J. Biggs tomonidan ilgari surilgan "konstruktiv muvofiqqlashtirish" ("*constructive alignment*") nazariyasiga ko'ra [Biggs, 2012], ushbu jarayonda ta'lim natijalari, maqbul o'qitish faoliyati va tegishli baholash topshiriqlarining uyg'unlashuvi real kompetensiyalarning shakllanishiga olib keladi. Zero, CLIL yondashuviga asoslangan EMP dars mashg'ulotlarida ingliz tili natijalari klinik kompetensiyalar bilan o'zaro mushtaraklik yaratadi.

O'z o'rnida *tadqiqot ishimizning gipotezasi* sifatida qayd etishimiz joizki, agar tibbiyot OTMlari talabalariga ingliz tili soft CLIL yondashuvi asosida o'qitilsa, u holda ularning ingliz tilida kasbiy kompetensiyasi an'anviy usullarga nisbatan samaraliroq rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslar hamda mazkur tadqiqot ishimizning qamrov ko'lamidan kelib chiqqan holda quyidagi *tadqiqot savollariga* javob olishga harakat qildik:

1. *Tibbiyot OTMlari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda soft CLIL yondashuvi qay darajada samarali?*

2. *Soft CLIL yondashuvi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy leksika, o'qish va yozish ko'nikmalariga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

3. *An'naviy usulda o'qitilgan talabalar bilan soft CLIL yondashuvi asosida o'qitilgan talabalar o'rtasida qanday farqlar kuzatiladi?*

## **TADQIQOT METODLARI**

Tibbiy oliy ta'lim talabalariga chet tillarini o'rgatishdan ko'zlangan asosiy maqsad – kasbiy muloqot uchun muhim bo'lgan axborotni olish va qayta ishlash imkonini beradigan tarzda tilning barcha nutq faoliyati turlaridan erkn foydalanish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat bo'lishi darkor [Potapova, 2021; 31]. Xususan, ayni maqsadga samarali erishish uchun (B1 darajadan B2 darajaga) ingliz tili ta'limi doirasidagi CLIL yondashuvining birlamchi tamoyillari – kognitiv yuklama (*cognitive load*), mazmunga asoslangan ta'lim (*content-driven learning*) va tilni funksional qo'llash (*meaningful use of language*) muhim ahamiyat kasb etadi.

## **CEFR asosida til darajalari tahlili (B1–B2) va CLIL yondashuvining didaktik tamoyillari**

O'z navbatida, 2020-yilda qayta nashr qilingan "Chet tillarni egallashning umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" ("Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment") [Council of Europe, 2020] me'yoriy hujjatga tayangan holda B1 va B2 deskriptorlarining tibbiy oliy ta'lim talabalarining ingliz tilini egallashlariga qo'yilgan talablari misolidagi qiyosiy tahlilini ham mutanosiblikda quyida keltirdik:

■ *Kognitiv yuklama tamoyili* – CLIL yondashuvi orqali B1 darajadagi talabalarining ingliz tilini bilish darajalarini B2 darajaga oshirishda kognitiv yuklamani ilmiy asosda boshqarishni ilgari suradi. Avstraliyalik ta'lim psixologi va kognitiv yuk nazariyasi muallifi J.Svellerning tahlillariga ko'ra, o'quv jarayonida

ayni bir vaqtda ikki turdagi ma'lumot – til va mazmun bilan ishlash talaba xotirasiga ortiqcha yuk tushirishi mumkin [Sweller, 1988]. Shu bois ingliz tili bo'yicha amaliy dars mashg'ulotlarida *scaffolding* (mustaqil o'quv faoliyatiga tayyor bo'lgunga qadar beriladigan vaqtinchalik yordam), *micro-scaffolding* (tezkor beriladigan ko'mak), *multimodal input* (bir necha xil axborot kanallaridan foydalanish) va *task sequencing* ("oddiydan murakkabga" tamoyiliga amal qilish) yondashuvlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Darhaqiqat, B1 darajadagi talabalarga tibbiyot konteksti dastavval murakkab tuyuladi, shuning uchun yuqorida tilga olingan yondashuvlar vositasida kognitiv yuklama kamaytirilishi mumkin. Natijada "aniq va sodda ma'lumot" (B1) darajasidan "kengaytirilgan, mavhum va murakkab ma'lumot" (B2) darajasiga o'tish kognitiv yuklamaning boshqarilishi hisobiga nisbatan ham samarali, ham oson bo'ladi. Misol uchun, talabalarga chet tili (ingliz tili)ga tayyorlash (mavzuga oid so'z boyligi (vocabulary)ni dars mashg'ulotlarining avvalida taqdim etish), visual o'quv materiallari (jadvallar, klinik algoritmlar aks etgan o'quv materiallari) va bosqichma-bosqich murakkablashtirilgan topshiriqlar orqali kognitiv yuklamani optimal balanslash mumkin.

■ *Mazmunga asoslangan ta'lim tamoyili* – CLIL yondashuvining mazmunga asoslanganli tibbiy oliy ta'lim kontekstida har tomonlama muhim, chunki ayni sohada kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda bu tamoyil real, ilmiy hamda kasbiy mazmun kabi 3 komponentning uyg'unlashuviga yo'l ochadi. K.Dalton-Pufferning ta'biri bilan aytganimizda, CLIL yondashuvi til va mazmun uyg'unlashgan kognitiv faoliyat asosida rivoj topadi [Dalton-Puffer, 2011], jumladan talabalar taqdim etilgan ma'lumotni tahlil qiladi, solishtiradi, taxmin qiladi, klinik vaziyatlarni sharhlaydi – bularning barchasi B2 darajaga erishishda muhim rol o'ynaydi. Aniqroq qilib aytganda, mazmunga asoslangan ta'lim tamoyili talabalarni "oddiy kundalik mazmun"dan (B1) "kasbiy-ilmiy mazmun" (B2) sari yo'naltiradi. Vaholanki, tibbiyot fanlarining nisbatan abstrakt (mavhum) ekanligi talabalarining yuqori kognitiv faoliyatlarini faollashtiradi va tilni chuqurroq hamda aniqroq ishlatishga majbur qiladi. Natijada ushbu tamoyil orqali talabalar oldiga chet tili (ingliz tili)dan foydalanishni emas, balki chet tili orqali mazmunni o'zlashtirishni ustuvor maqsad sifatida ko'ndalang qilib qo'yadi.

■ *Tilni funksional qo'llash tamoyili* – CLIL yondashuvi orqali tibbiy oliy ta'limda talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish kontekstida B1 darajadan B2 darajaga tizimli ko'tarilishda muhimdir. Chunki, mazkur tamoyil ayni jabhadadagi eng kuchli omillar – tilning funksional, aniqroq qilib aytganimizda, maqsadga yo'naltirilishi bilan yuqoridagi tamoyillardan ajralib turadi. Aslini olganda, an'anaviy tarzda chet tillarini o'rganish amaliyotidan farqli o'laroq, CLIL yondashuvida talabalar tilni real kommunikativ vazifalarni bajarishda foydalanishadi. Masalan, bemorlardagi simptomlarni ifodalash, kasallik tarixini aytib berish, klinik holatlarni bayon qilish, laboratoriya natijalarini og'zaki yoki yozma tarzda izohlash, olingan natijalar asosida bemorlarga ko'rsatmalar berish kabi. D.Koyl esa bu holatni "kommunikatsiya orqali o'rganish" ("*learning through communication*") [Coyle, 2006] deb nomlaydi. Bunday holat talabalarni "tanish mavzular" (B1) kontekstidan "kasbiy, kengaytirilgan va spontan muloqot" (B2) kontekstiga o'tkazadi.

Demak, tilni funksional qo‘llash tamoyili yordamida talabalar ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini sun‘iy mashqlar orqali emas, balki amaliy kommunikativ ehtiyoj orqali rivojlantirishlari mumkin bo‘ladi. Natijada qisqa muddatda yuqori natijaga erishish mumkin bo‘ladi, xususan, talabalar ayni tamoyil doirasida har bir til birligini aniq klinik vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Shuningdek, tibbiyot OTMlarida ingliz tilining faqat bir o‘quv yilida o‘qitilishini hisobga olgan holda CLIL yondashuvining samarali tatbiqi bir qator mexanizmlarga ham bog‘liqdir:

(1) *Dual-fokus o‘qitish* (“double-aim instruction”) *mexanizmi* [Coyle et al., 2010], ya‘ni talabalar tibbiyotga oid yangi mazmuni o‘zlashtirishda va amalda ifodalashda zarur hisoblangan lingvistik vositalardan ham faol foydalanishga majbur bo‘ladi. Ushbu jarayon ilmiy kontekstda “majburiy nutq faoliyati” (“*compelled output*”) [Swain, 2005] sifatida izohlanadi. Chunki, mazmuni tushunish va uni qayta ishlashga bo‘lgan amaliy ehtiyoj talabalarning o‘z nutq faoliyatlarini ingliz tilida tabiiy ravishda faollashtiradi.

(2) *Tilning tabiiy va maqsadga yo‘naltirilgan qo‘llanilishi* (“authentic purposeful use”) *mexanizmi* CLIL yondashuvida til o‘rganish maqsad emas mazmuni o‘zlashtirish vositasi sifatida qaralishiga asoslanadi. Shuning uchun ayni jabhada ingliz tilidagi topshiriqlar real klinik vaziyatlarga bog‘liq holda shakllantiriladi. Misol uchun, bemorning anamnezini yig‘ish, simptomlarni tavsiflash, tibbiy ko‘rik natijalarini izohlash, klinik hisobotlarni tayyorlash kabi amaliy vazifalar talabalardan ingliz tilini sun‘iy mashqlarda emas, balki autentik muloqot vaziyatlarida qo‘llashni talab qiladi. K.Dalton-Puffer CLIL yondashuvi doirasida mazmun orqali hosil bo‘ladigan tabiiy nutqni “maqsadga yo‘naltirilgan diskurs” (“*purposeful discourse*”) [Dalton-Puffer, 2011] sifatida e‘tirof etadi. Shu tariqa CLIL yondashuvi ingliz tilini amaliy nutq jarayonida integratsiyalangan holda rivojlantirib, talabalarni B2 daraja uchun belgilangan talablarga muvofiq mustaqil hamda ravon fikr bildira olishga tayyorlaydi.

(3) *Kognitiv faoliyatni yuqori darajada uyg‘unlashtirish mexanizmi* (“learning through cognition”) CLIL yondashuvi doirasida shakllanuvchi ta‘lim modelining kognitiv faoliyatni chuqur integratsiya qilish yordamida chet tillarini o‘rganish mohiyatini [Coyle, 2006] o‘zida aks ettiradi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, talabalar ingliz tilida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish amaliyotida nafaqat lingvistik vositalarni, balki yuqori darajadagi aqliy operatsiyalarni – tahlil qilish, taqqoslash, xulosa chiqarish yoki klinik holatlarni sharhlash kabi amallarni bajarishda ushbu mexanizm o‘zining dolzarbligini namoyon qiladi. Ayniqsa, bu amallar B2 daraja uchun belgilangan fikrlarni dalillash, murakkab munosabatlarni izohlash, muammolarga o‘z munosabatlarini bildirish, shuningdek, mantiqiy xulosa qilish kabi deskriptorlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi. Kognitiv faoliyatning yuqori darajada uyg‘unlashuvi B1 darajadagi talabalarni oddiy tasvirlash ko‘nikmalaridan B2 darajada talab etiladigan analitik va mantiqiy nutqni shakllantira olishga olib boradi.

### Tadqiqot obyekti va ishtirokchilar tarkibi

Shu o‘rinda qayd etishimiz joizki, tajriba-sinov ishlarini olib borish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik talablarga binoan Respublikamizning turli mintaqalarida joylashgan uchta tibbiyot OTM tanlandi: (1) Toshkent davlat tibbiyot universiteti (ToshDTU), (2) Andijon davlat tibbiyot instituti (ADTI) va (3) Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti (BuxDTI). Bundan tashqari, tadqiqot ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, 2025/2026-o‘quv yili doirasida “60910200 – Davolash ishi” ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan 1-bosqich talabalari orasida tajriba-sinov ishlarimiz tashkillashtirildi, chunki ingliz tili amalda faqat shu 1-bosqichda mavjud. Tajriba-sinov ishlari ularni amalga oshirish bo‘yicha amaldagi ilmiy-metodik me‘yor va talablarga binoan rejalashtirildi hamda bosqichma-bosqich olib borildi. Shuningdek, tajriba-sinov jarayoni tibbiyot oliy ta‘limining 1-bosqichini qamrab olganligi bois tanlab olingan OTMlari kesimida umumlashtirilgan ma‘lumotlar quyidagi jadvalda taqdim etildi. Mazkur tajriba-sinov ishlarida jami 131 nafar respondent ishtirok etib, ulardan 65 nafari nazorat guruhlarida, 66 nafari esa tajriba guruhlarida bo‘lishdi (1-jadvalga qarang):

*1-jadval. Tajriba-sinov maydonlari ishtirokchilari soni*

Tajriba-sinov maydonlari nomi	1-bosqich talabalari	
	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
ToshDTU	20	20
ADTI	22	23
BuxDTI	23	23
Jami	65	66

### Tadqiqot dizayni va tajriba-sinov modeli

Bundan tashqari, amaldagi talablarga ko‘ra, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish 4 bosqichni qamrab oldi – (1) tashxis va bashorat qilish (prognostik), (2) tashkiliy-tayyorgarlik, (3) amaliy va (4) umumlashtiruvchi bosqichlar kabi. Avvalambor, birinchi – *tashxis va bashorat qilish (prognostik) bosqichida* tajriba-sinov maydonlarini belgilab oldik. Shundangi so‘ng, o‘quv jarayonidagi mavjud holatlarni o‘rganib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimi DTSlari, “60910200 – Davolash ishi” ta‘lim yo‘nalishi uchun tasdiqlangan malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini tahlil qildik, ingliz tili dars mashg‘ulotlarini kuzatdik, shu bilan birga, respondentlar orasida test o‘tkazish yo‘li bilan amalda mavjud muammolarni aniqladik. Jumladan, tajriba-sinov ishlarimizdan ko‘zlangan maqsad, ilmiy faraz hamda vazifalarni boshlang‘ich natijalarga binoan aniqlashtrib oldik, bu orqali esa butun tajriba-sinov ishlari amaliy jarayonlari uchun kerakli bo‘lgan dasturni ishlab chiqdik.

Ikkinchi – *tashkiliy-tayyorgarlik bosqichida* tajriba-sinov ishlari olib boriladigan maydonlar, vaqti, muddati, o‘quv materiallar miqdori hamda respondentlarni tanlab oldik. Bularning barchasi pedagogik jarayon tavsifi bo‘lib, ular tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va kutilgan natijalarga erishilishida muhim rol o‘ynaydi. Shu jumladan, ilk bosqich – tashxis va bashorat qilish (prognostik)da aniqlangan muammolarni samarali hal etishga qaratilgan metodik hamda didaktik

ta'minotni ishlab chiqdik. Xususan, bo'lajak shifokorlar sifatida talabalarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini soft CLIL yondashuvi asosida rivojlantirishning strukturaviy-funksional modeli, uni sinovdan o'tkazish va qo'llash metodikasining amaliy algoritmini o'z ichiga qamrab olgan metodik ta'minot, shu bilan bir qatorda, soft CLIL muhitida talabalarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimi, uning tipologiyasi hamda topshiriqlar to'plamini ham ayni shu bosqich davomida ishlab chiqdik.

Uchinchi – *amaliy bosqich*da belgilab olingan tajriba-sinov maydonlaridagi ishtirokchilarning soni aniqlanib, ular nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. O'z navbatida qayd etishimiz joizki, ayni amaliy bosqich tajriba-sinov ishlari uchun tayyorlangan metodik va didaktik ta'minot doirasida 2025/2026-o'quv yilining kuzgi (birinchi) semestri mobaynida amalga oshirildi. Xususan, o'quv dasturlarini tahlil qilish davomida shuni aniqladikki, ularda asosiy e'tibor mutaxassislik fanlari bilan bog'liq mazmunga berilganligi, kasbga oid til ko'nikmalaridan foydalanish ikkinchi darajada bo'lib qolganligini aniqladik. Shu bois o'quv dasturidagi har bir mavzu uchun majburiy EMP komponentlarini belgilab olish zarurligi, talabalarda ayniqsa soft CLIL yondashuvi muhitida termin-kontekst bilan ishlash (terminologik bilim), tibbiy matnlar bilan ishlashdagi qiyinchiliklar (kasbiy axborotni qabul qilish) va bemorlar holatini ingliz tilida yozma tarzda bayon qilish (boshlang'ich kasbiy yozma kompetensiya) ko'nikmalarini rivojlantirish masalalarini hisobga oldik.

### **Empirik tadqiqot metodlari**

Tajriba-sinov ishlari davomida bo'lajak shifokorlar sifatida talabalarning ingliz tilida bilim, ko'nikma va malakalarini baholash maqsadida qo'shimcha tadqiqot metodlari, ya'ni empirik metodlari (anketa (so'rovnoma) va test)dan foydalandik. Umuman olganda, empirik tadqiqot materiallari ikki tarkibiy qismdan iborat bo'ldi: birinchi qism talabalar uchun mo'ljallangan anketa (so'rovnoma), uchinchi qism esa talabalar uchun tuzilgan yopiq/ochiq va yozma test topshiriqlardan iborat bo'ldi. Mazkur anketa (so'rovnoma)ni o'tkazishdan ko'zlagan maqsadlarimiz esa (1) talabalarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyaga nisbatan dastlabki munosabati va motivatsiyasini aniqlash; (2) tibbiy maqsadlar uchun ingliz tilini o'rganishdagi qiyinchiliklar (terminologiya, matn tushunish, yozma nutq)ni aniqlash; (3) soft CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan darslar orqali erishiladigan natijalarni aniqlash; (4) talabalarning B1 darajadagi ingliz tilida o'z-o'zini baholash holatini aniqlash. Shu tarzda talabalar uchun tayyorlangan anketa (so'rovnoma) tajriba-sinov ishlari uchun dastlabki sharoitni aniqlovchi diagnostik vosita bo'lib xizmat qildi (2-jadvalga qarang):

*2-jadval. Talabalar uchun anketa (so'rovnoma) savollari va tarkibi*

№	Questions
<b>Section A</b>	<b>General Information</b>
1.	Faculty/Department
2.	Year of Study
3.	Group number / Gender

Section B	English Language Background
4.	How long have you been learning English?
5.	What is your current English level (self-assessment)?
6.	Have you studied English specifically for medical purposes before?
Section C	Skills Evaluation (Self-assessment)
7.	Rate your ability in the following skills (Reading, Writing, Listening, Speaking)
Section D	Attitudes and Motivation
8.	Why do you study English?
9.	How motivated are you to improve your professional English competence?
Section E	Expectations
10.	What do you expect from an English course taught through CLIL (Content and Language Integrated Learning)?

Tadqiqot ishimizning asosiy empirik natijalari pre-test va post-test yordamida miqdoriy usulda o'tkazilganligi, *kasbiy leksika* (vocabulary), *kasbiy matnlarni tushunish* (reading) va *kasbiy yozma nutq* (writing) ko'nikmalaridagi test natijalari orqali aniq va ishonchli baholanishi mumkinligi va ularning talabalarning keyingi bosqichlarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishlariga bevosita xizmat qilishi inobatga olindi. *Gapirish* (speaking) ko'nikmasini esa bu test materiallari tarkibiga kiritmadik, chunki u alohida vaqt, individual baholash va og'zaki nutqni subyektiv omillardan xoli ravishda o'lchashni taqozo etadi. Bu esa ushbu tadqiqotimiz doirasida matematik statistik jihatdan barqaror va taqqoslanadigan natijalar olish imkoniyatimizni cheklashi mumkin edi. Bundan tashqari, anketa (so'rovnoma) natijalari statistik tahlil obyekti sifatida emas, balki tajriba-sinov ishlari uchun diagnostik hamda yo'naltiruvchi vosita sifatida qo'llanilganligi uchun ham anketa (so'rovnoma) faqat tajriba oldi o'qituvchilar va talabalar orasida o'tkazildi.

### Diagnostik vositalar va baholash ko'rsatkichlari

Shu bilan birga, talabalar e'tiboriga tajriba oldi (Pre-test) va yakunida (Post-test) vocabulary, reading va writing ko'nikmalari bo'yicha yopiq va ochiq test shakllari taqdim etildi. Jumladan, vocabulary va reading testlari asosan yozma test shaklida tashkil etilib, yopiq turdagi topshiriqlar (multiple choice, true/false, gapi to'ldirish, qisqa yozma javoblar) orqali talabalarning bilim va malakalarini obyektiv baholash imkoniyati yaratildi.

Birinchi navbatda, *vocabulary (medical terminology) pre-test* tibbiyot talabalarining ingliz tilida kasbiy tayyorgarligining dastlabki holatini aniqlash maqsadida o'tkazildi. Ushbu bo'lim 20 ta yopiq testdan iborat bo'ldi. Mazkur test yordamida 1-bosqich tibbiyot talabalarini tomonidan tibbiyot sohasiga tegishli asosiy terminlarning tanilishi, ularning ma'nosini farqlay olish darajasi, shu bilan birga, oddiy klinik kontekstda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini baholash reja qilindi. Shu jumladan, ushbu pre-test soft CLIL yondashuvi asosida olib boriladigan ta'lim jarayonida terminologik kompetensiyaning qay darajada rivojlanib borganligini tajriba-sinov ishlari yakunida aniqlash uchun boshlang'ich ko'rsatkich vazifasini bajardi.

Ikkinchi navbatda, *reading pre-test* tibbiyot talabalarining ingliz tilidagi kasbiy matnlarni tushunish darajasini aniqlash uchun taqdim qilindi. Jumladan, ayni

bo‘lim 15 ta savoldan tashkil topdi. Shu bois test mazmuni tibbiyotga oid qisqa va soddalashtirilgan matnlar yordamida tuzilib, bo‘lajak shifokorlar sifatida talabalar tomonidan asosiy g‘oyani anglash, zarur ma‘lumotlarni ajratib olish hamda sabab-oqibat munosabatlarini tushunish ko‘nikmalarini baholashni maqsad qildik. Natijada ayni pre-test vositasida talabalarining kasbiy axborotni ingliz tilida qabul qilishga tayyorlik darajasi aniqlanib, soft CLIL yondashuvi asosida olib boriladigan dars mashg‘ulotlarining mazmunini muvofiqlashtirishga zamin yaratildi.

Uchinchidan, *writing pre-test* tibbiyot talabalarining ingliz tilida kasbiy yo‘naltirilgan yozma nutqni (6-8 ta gapdan iborat) amalga oshirishdagi boshlang‘ich imkoniyatlarini aniqlash uchun havola qilindi. Xususan, ayni test davomida bo‘lajak shifokorlar sifatida talabalar bemor holatini qisqa tavsiflash yoki simptomlarni yoritish singari vazifalarni bajarish orqali o‘zlarining grammatik savodxonligi, tibbiy terminlardan foydalanish darajasi hamda fikrni mantiqan izchil ifodalash qobiliyatini namoyon qilishdi. Binobarin, mazkur pre-test sof CLIL yondashuvi tatbiqi davomida yozma nutq kompetensiyasida yuz beradigan sifat hamda miqdor o‘zgarishlarini baholashdagi birlamchi darajadagi tayanch nuqta vazifasini bajardi.

### **Baholash mezonlari va statistik tahlil usullari**

Xususan, dastlabki bosqichda yopiq testlarni bo‘yicha natijalar to‘g‘ri javoblar soni asosida hisoblab chiqdik, ochiq yozma testni esa *mazmun va moslik, tibbiy leksikadan foydalanish, grammatik va imlo aniqligi* hamda *mantiqiylik va izchillik* kabi mezonlar asosida baholadik. Shu tariqa olingan natijalar birinchi bosqich tibbiyot talabalarining boshlang‘ich tayyorgarlik darajasini aniqlash, mavjud muammolarni belgilash hamda tajriba-sinov ishlarimizning keyingi bosqichlarini ilmiy asosda rejalashtirishda muhim diagnostik asos bo‘lib xizmat qildi. Quyidagi jadvalda olingan natijalarni baholash mezonlari tasnifi ikki shkala (5 baholik va 100 ballik) doirasida taqdim etildi (3-jadvalga qarang):

*3-jadval. Til ko‘nikmalari bo‘yicha yopiq va ochiq test natijalarini baholash mezonlari*

<b>Baho</b>	<b>Tasnifi</b>
<b>5 – “a’lo” (4,46-5,00) baho  (90 – 100 ball)</b>	Vocabulary (20 ta savoldan kamida 17-20 tasi to‘g‘ri), Reading (15 ta savoldan kamida 13-15 tasi to‘g‘ri) bajarilgan; Writing bo‘yicha ochiq yozma topshiriqda tibbiy holat aniq va mantiqli bayon qilinib, terminlar to‘g‘ri qo‘llangan, grammatik va imlo xatolari deyarli kuzatilmaydi.
<b>4 – “yaxshi” (3,46-4,45) baho  (70 – 89 ball)</b>	Vocabulary (20 ta savoldan kamida 14-16 tasi to‘g‘ri), Reading (15 ta savoldan kamida 11-12 tasi to‘g‘ri) bajarilgan; Writing topshirig‘ida mazmun asosan ochilgan, biroq ayrim leksik, grammatik yoki mantiqiy kamchiliklar mavjud.
<b>3 – “qoniqarli” (3,00-3,45) baho  (60 – 69 ball)</b>	Vocabulary (20 ta savoldan kamida 10-13 tasi to‘g‘ri), Reading (15 ta savoldan kamida 8-10 tasi to‘g‘ri) bajarilgan; Writing topshirig‘ida mazmun yuzaki ochilgan, terminlardan foydalanish cheklangan, yozma nutqda xatolar mavjud.

2 – “qoniqarsiz” (3,00 dan kam) baho  (60 balldan kam)	Vocabulary (20 ta savoldan kamida 0-9 tasi to‘g‘ri), Reading (15 ta savoldan kamida 0-7 tasi to‘g‘ri) bajarilgan; Writing topshirig‘ida vazifa talablariga rioya qilinmagan, mazmun ochildmagan, tibbiy leksikadan deyarli foydalanilmagan.
---	---

Mazkur jadvalda keltirilgan baholash mezonlariga ko‘ra, yopiq va ochiq test savollaridan iborat topshiriqlar tajriba-sinov ishlari oldi va oxirida ikki ko‘nikma (vocabulary va reading) bo‘yicha to‘g‘ri topilgan javoblar soniga, writing ko‘nikmasi esa belgilangan 4 mezon bo‘yicha 5 (“a’lo”), 4 (“yaxshi”), 3 (“qoniqarli”) va 2 (“qoniqarsiz”) baholar asosida baholandi. Jumladan, har bir ko‘nikma bo‘yicha talabalarining o‘zlashtirish darajasini quyidagi formula asosida hisoblab chiqdik:

$$K = \frac{N}{S} \times 100\%$$

Bu yerda:  $N$  – to‘g‘ri (noto‘g‘ri) javob bergan talabalar soni;

$S$  – tajriba-sinov kesimida ishtirok etgan talabalarining umumiy soni.

Barcha mezonlarga ko‘ra tibbiyot talabalarining o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarini quyidagi formulalar yordamida aniqladik:

$$K = \frac{N_1 + N_2 + N_3 + N_4 + \dots + N_n}{S \times V} \times 100\%$$

Bu yerda:  $N_1 + N_2 \dots N_n$  – barcha mezonlar bo‘yicha to‘g‘ri javob bergan talabalar soni;

$S$  – tajriba-sinov kesimida ishtirok etgan talabalarining umumiy soni;

$V$  – mezonlarning umumiy soni.

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida olingan natijalarni dastlabki (pre-test) natijalar bilan qiyosiy tahlil qilib, ularni qayta hisoblashda matematik statistik usullardan foydalandik. Xususan, nazorat va tajriba guruhlaridagi birinchi bosqich tibbiyot talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarining asosiy tarkibiy qismlari – vocabulary, reading va writing ko‘nikmalari bo‘yicha o‘zlashtirish darajalarini taqqoslash maqsadida baholash natijalarining o‘rtacha qiymati

$$X = \frac{\sum x_i m_j}{N}$$

formulasi asosida aniqlandi. Bu yerda  $x_j$  – o‘zlashtirish darajasini ifodalovchi baho qiymatlari bo‘lib, ular 2 (past), 3 (o‘rta), 4 (yaxshi) va 5 (a’lo) ko‘rsatkichlarini qamrab oladi;  $m_j$  – mazkur baholarning takrorlanishlar soni;  $N$  – tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan talabalarining umumiy sonini bildiradi.

## NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot ishimizning bosh maqsadi tibbiyot OTMlari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda soft CLIL yondashuvidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashdan iborat bo‘ldi. Soft CLIL yondashuvi asosida tibbiyot OTMlari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarining boshlang‘ich darajasini aniqlash maqsadida diagnostik yopiq va ochiq testlar asosida dastlabki

tajriba-sinov (pre-test) ishlari tashkil etildi. Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, mazkur bosqichda talabalarning vocabulary, reading va writing bo’yicha mavjud bilim va ko’nikmalari sinovdan o’tkazilib, ularda uchrayotgan xato hamda qiyinchiliklarni tahlil qildik. O’z navbatida, quyidagi jadvalda dastlabki bosqichga tegishli baholar taqdim etildi (4-jadvalga qarang):

*4-jadval. Baholash mezonlariga ko’ra talabalarning dastlabki tajriba-sinov ishlari natijalari*

Ta’lim muassasalari	Nazorat guruhi					Tajriba guruhi				
	Sinovda qatnashgan talabalar soni	A’lo – 5	Yaxshi – 4	Qoniqarli – 3	Qoniqsiz – 2	Sinovda qatnashgan talabalar soni	A’lo – 5	Yaxshi – 4	Qoniqarli – 3	Qoniqsiz – 2
ToshDTU	20	1	3	7	9	20	2	6	7	5
ADTI	22	1	4	8	9	23	3	7	6	7
BuxDTI	23	1	6	4	12	23	1	8	9	5
<b>Jami</b>	<b>65</b>	<b>3</b>	<b>13</b>	<b>19</b>	<b>30</b>	<b>66</b>	<b>6</b>	<b>21</b>	<b>22</b>	<b>17</b>

Mazkur jadvalda aks ettirilgan ko’rsatkichlarni statistik metodlar asosida qayta ishlash jarayonida ketma-ket bosqichlardan iborat tahlil algoritmidan foydalandik. Xususan, dastlabki bosqichda yopiq va ochiq testlar natijalarini soft CLIL yondashuvi asosida tashkil etilgan tajriba guruhi hamda an’anaviy o’qitish asosida ta’lim olgan nazorat guruhi kesimida umumlashtirdik, shu orqali qiyosiy tahlilni amalga oshirdik (5-jadvalga qarang):

*5-jadval. Dastlabki pre-test natijalariga ko’ra talabalarning bilim darajasi*

Statistik ko’rsatkichlar	Guruhlar	ToshDTU	ADTI	BuxDTI	Jami
<b>O’rtacha qiymat</b>	Tajriba guruhi	2,72	2,75	2,69	2,72
	Nazorat guruhi	2,61	2,64	2,58	2,61
<b>Tanlanma dispersiya</b>	Tajriba guruhi	0,86	0,83	0,88	0,86
	Nazorat guruhi	0,91	0,89	0,94	0,91
<b>Standart xatolik</b>	Tajriba guruhi	0,20	0,19	0,21	0,20
	Nazorat guruhi	0,23	0,22	0,24	0,23
<b>Samaradorlik koeffitsiyenti (K)</b>	Tajriba guruhi	<b>1,04</b>	<b>1,04</b>	<b>1,04</b>	<b>1,04</b>
	Nazorat guruhi	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>
<b>Ishonchlik oralig’i</b>	Tajriba guruhi	2,32–3,12	2,37–3,13	2,28–3,10	2,32–3,12
	Nazorat guruhi	2,16–3,06	2,20–3,08	2,11–3,05	2,16–3,06
<b>O’rtacha qiymat ko’rsatkichi</b>	Tajriba guruhi	2,72	2,75	2,69	2,72
	Nazorat guruhi	2,61	2,64	2,58	2,61

<b>Styudent statistikasi (t)</b>	<b>1,31</b>	<b>1,31</b>	<b>1,31</b>	<b>1,31</b>
<b>Kritik qiymat (<math>\alpha = 0,05</math>)</b>	1,96	1,96	1,96	1,96
<b>Kriteriy xulosasi</b>	<b>H<sub>0</sub></b>	<b>H<sub>0</sub></b>	<b>H<sub>0</sub></b>	<b>H<sub>0</sub></b>

5-jadvalda aks ettirilgan natijalarga tayangan holda xulosa qiladigan bo'lsak, nazorat va tajriba guruhlaridagi birinchi bosqich tibbiyot talabalari ingliz tilida kasbiy kompetensiyaning uch asosiy ko'nikmasi bo'yicha turlicha tayyorgarlikka ega. Jumladan, vocabulary ko'nikmasi har ikki guruhda nisbatan yuqoriroq bo'lsa-da, reading va writing ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Ya'ni, tarjiba guruhi barcha ko'nikmalar bo'yicha nazorat guruhidan biroz ustun natija ko'rsatgan bo'lsa-da, guruhlar o'rtasidagi farq keskin emasligi ularning boshlang'ich tayyorgarlik darajasi deyarli teng ekanini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi jadvalda keltirilgan o'rtacha qiymatni aniqlash, tanlanma dispersiya, standart xatolik, ishonchlilik oralig'i, samaradorlik koeffitsiyenti, Styudent statistikasi hamda Styudent kriteriyasi ozodlik kabi matematik statistik ko'rsatkichlar hisoblab chiqildi.

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarida qatnashgan talabalarning yakuniy bosqich – tajriba-sinov oxiridagi yopiq va ochiq test topshiriqlaridan iborat post-test natijalari yuqorida keltirilgan baholash mezonlariga ko'ra quyidagicha bo'ldi (5-jadvalga qarang):

*5-jadval. Baholash mezonlariga ko'ra talabalarning yakuniy tajriba-sinov ishlari natijalari*

Ta'lim muassasalari	Nazorat guruhi				Tajriba guruhi					
	Sinovda qatnashgan talabalar soni	A'lo – 5	Yaxshi – 4	Qoniqarli – 3	Qoniqarsiz – 2	Sinovda qatnashgan talabalar soni	A'lo – 5	Yaxshi – 4	Qoniqarli – 3	Qoniqarsiz – 2
ToshDTU	20	2	4	7	7	20	7	8	4	1
ADTI	22	1	5	8	8	23	4	9	6	4
BuxDTI	23	1	6	7	9	23	3	7	8	5
<b>Jami</b>	<b>65</b>	<b>4</b>	<b>15</b>	<b>22</b>	<b>24</b>	<b>66</b>	<b>14</b>	<b>24</b>	<b>18</b>	<b>10</b>

Shu o'rinda qayd etishimiz joizki, 1 semestrlik muddat davomida soft CLIL yondashuvi asosida tajriba guruhida olib borilgan ta'lim jarayonlariga tayangan holda post-test materiallari dastlabki pre-testdan mazmun hamda murakkablik darajasi jihatidan muayyan darajada farqli qilib ishlab chiqdik. Xususan, vocabulary bo'limida post-testda terminlarning faqatgina lug'aviy ma'nosini aniqlash emas, balki ularni klinik va kasbiy kontekstda to'g'ri tanlay olishlari talab qilindi; savollar soni o'zgartirilmadi, ammo tibbiyotga oid tushunchalarning chuqurroq o'zlashtirilganligini tekshirdik. Reading bo'limida dastlabki pre-testda bo'lgani kabi talabalardan sabab-natija munosabatlarini aniqlash, tibbiy tashxis va tavsiyalarni tushunish kabi o'qib

tushunish ko'nikmalari talab qilindi. Writing bo'limida esa pre-testdagi sodda tavsiflovchi yozuvlardan farqli o'laroq, post-testda talabalarning mustaqil ravishda klinik holatni mantiqan izchil bayon qilishlari, kasbiy leksikadan to'g'ri foydalana olish va shifokorlik xulosasini asoslab yozish vazifalarini bajarishlari belgilandi. Umuman olganda, post-test topshiriqlari talabalarning ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasini chuqurroq va kompleks baholashga qaratildi.

Styudent t-kriteriyasi asosida o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ( $T=3,98$ ;  $k \approx 129$ ;  $T_{\{0,95\}}=1,98$ ). Ushbu natija nol gipoteza –  $H_0$  rad etilib, alternativ gipotezaning –  $H_1$  qabul qilinishiga asos bo'ldi. Ayni holatga tayangan holda aytishimiz mumkinki, tajriba-sinov ishlari oldi va oxirida olingan yopiq hamda ochiq test topshiriqlari samarali ekanligi matematik statistik hisoblash usullari orqali isbotlandi.

Quyidagi jadvalda mazkur test natijalari va xulosalarning umumlashgan ko'rinishini keltirdik. Jumladan, yakuniy (post-test) natijalar asosida tajriba guruhida o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 3,64 ni, nazorat guruhida esa 2,98 ni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin (6-jadvalga qarang):


*6-jadval. Yakuniy post-test natijalariga ko'ra talabalarning bilim darajasi*

Statistik ko'rsatkichlar	Guruhlar	ToshDTU	ADTI	BuxDTI	Jami
O'rtacha qiymat	Tajriba guruhi	3,72	3,65	3,56	3,64
	Nazorat guruhi	3,02	2,99	2,93	2,98
Tanlanma dispersiya	Tajriba guruhi	0,94	0,96	0,99	0,96
	Nazorat guruhi	0,83	0,86	0,87	0,85
Standart xatolik	Tajriba guruhi	0,12	0,12	0,12	0,12
	Nazorat guruhi	0,11	0,11	0,11	0,11
Samaradorlik ko'effitsiyenti (K)	Tajriba guruhi	<b>1,23</b>	<b>1,22</b>	<b>1,21</b>	<b>1,22</b>
	Nazorat guruhi	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>	<b>1,00</b>
Ishonchlik oralig'i	Tajriba guruhi	3,48–3,96	3,41–3,89	3,32–3,80	3,40–3,88
	Nazorat guruhi	2,80–3,24	2,77–3,21	2,71–3,15	2,76–3,20
O'rtacha qiymat ko'rsatkichi	Tajriba guruhi	3,72	3,65	3,56	3,64
	Nazorat guruhi	3,02	2,99	2,93	2,98
Styudent statistikasi (t)		<b>3,98</b>	<b>3,98</b>	<b>3,98</b>	<b>3,98</b>
Kritik qiymat ( $\alpha = 0,05$ )		1,96	1,96	1,96	1,96
Kriteriy xulosasi		<b>H<sub>1</sub></b>	<b>H<sub>1</sub></b>	<b>H<sub>1</sub></b>	<b>H<sub>1</sub></b>

Demak, post-test natijalari asosida hisoblangan samaradorlik ko'effitsiyenti.  $K=1,22$  ni tashkil etib, tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekanligini tasdiqladi. Student t-kriteriyasi yordamida o'tkazilgan statistik tahlilda ham  $T=3,98 > T_{krit}=1,96$  bo'lganligi sababli nol gipoteza  $H_0$  rad etilib, alternativ gipoteza

–  $H_1$  qabul qilindi.

Endigi navbat pre-test va post-test natijalarini qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, nazorat va tajriba guruhlarida talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarining uch asosiy ko‘nikmasi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Shunga qaramay, tajriba guruhida mazkur o‘zgarishlar ancha yuqori bo‘lib, uchta ko‘nikma – vocabulary, reading va writing bo‘yicha o‘rtacha o‘zlashtirish darajasi 50,00%dan 60,60%ga oshib, 10,60%ga ijobiy farqni tashkil qildi. Xususan, nazorat guruhida mazkur ko‘rsatkich 4,40% bilan cheklangan. Quyidagi diagrammada tajriba oldi va tajriba oxirida uch ko‘nikma bo‘yicha talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganlik holatini qiyoslangan holatda taqdim etdik:



Demak, o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo‘lajak shifokorlar sifatida birinchi bosqich tibbiyot OTMLari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyalarini soft CLIL yondashuvi asosida rivojlantirish jarayonining samaradorligini aniqlab olishda muhim rol o‘ynadi. Pre-test va post-test natijalarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida soft CLIL yondashuvi asosida birinchi bosqich talabalarining kasbiy leksika, o‘qib tushunish va yozma nutq ko‘nikmalari bo‘yicha umumiy o‘rtacha natijalari 10,60%ga oshdi. Nazorat guruhida bo‘lsa o‘zgarishlar cheklangan bo‘lib, bu qo‘llagan metodikamizning aynan tajriba guruhida yuqori samara berganini isbotladi. Binobarin, matematik statistik tahlil natijalari (Student t-kriteriyasi) tadqiqot ishimizning gipotezasini tasdiqlab, ayni tadqiqotimiz davomida oldimizga qo‘ygan savollarimizga aniq hamda ijobiy javoblar olishimizni ta‘minladi. Bu tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq tasodifiy emasligini tasdiqlagan holda olib borgan tajriba-sinov ishlarimizning ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, tibbiy oliy ta‘limda EMP mashg‘ulotlarida, birinchi navbatda, ehtiyojlar tahlili bemorlardan anamnez olish, simptomlarni so‘rash, tibbiy ko‘rsatmalar berish, yozma shaklda klinik

hujjatlarni to'ldirish va olingan tibbiy xulosalarni og'zaki tarzda bayon qilishdek kasbiy kompetensiyalarni aniqlashda yaqqol namoyon bo'ladi. Bu tamoyil tibbiy oliy ta'limda ingliz tilining chet tili sifatida o'qitilishi jarayonlarini kasbiy ehtiyojlarning chuqur tahlillarizisiz samarali tarzda amalga oshirib bo'lmashligini nazarda tutadi. Shu boisdan CLIL yondashuvining 4C modeli o'rganilayotgan chet tili – ingliz tilining tushuntirish, asoslash, tasvirlash va baholash funksiyalarini ta'lim mazmuni bilan bog'lagan holda amalda kutilgan natijalarga erishish mumkinligini kafolatlaydi.

Bundan tashqari, tibbiyot OTMLarida ingliz tilining amalda faqat birinchi o'quv yilida o'qitilishini hisobga oladigan bo'lsak, CLIL yondashuvining soft shaklidan uning asosiy ikki xususiyati – chet tili mutaxassisidan mutaxassislik fanlari bo'yicha chuqur bilim talab qilmasligi hamda o'quv materiallari va topshiriqlarning livistik murakkablik darajalarini talabalarining ingliz tili bo'yicha bilimlariga muvofiqlikda kamaytirilishi mumkinligi amalda EMP ta'lim jarayonlarining muvaffaqiyatli tarzda olib borilishiga shart-sharoit yaratadi. Vaholanki, uning samaradorligi o'qituvchi tomonidan kognitiv murakkablik, bosqichma-bosqich tarzda qo'llab-quvvatlash, faol o'rganish, til va mazmunning o'zaro mutanosiblikda o'qitilishi hamda autentiklik va real vazifalar singari tamoyillardan maqsadli foydalanilishiga bog'liq.

Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari davomida olingan natijalar tibbiyot OTMLari talabalarining ingliz tilida kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda CLIL yondashuviga asoslangan o'qitish metodikasining samaradorligini tasdiqladi. Jumladan, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy farazni amaliyotga tatbiq etishda (1) fan va til integratsiyasiga mos CLIL yondashuvining tamoyillarini to'g'ri tanlash; (2) ingliz tili mashg'ulotlarining har bir bosqichini aniq kasbiy va kommunikativ maqsadlarga yo'naltirish; (3) o'quv materiallarining kasbiy mazmuni va didaktik sifatiga alohida e'tibor qaratish; (4) kasbiy vaziyatlarga asoslangan yondashuv va CLIL yondashuviga muvofiqlikdagi metodlardan manzilli foydalanish; (5) EMP o'quv jarayonlarida ehtiyojlar tahliliga ustuvorlik qaratish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bashirova, Kh.A., Magomedova, M.A., & Ragimova, V.M. (2022). Rol' inostrannogo yazyka v formirovaniy professional'noy kompetentnosti studentov-medikov. *Mir nauki, kul'tury, obrazovaniya*, 1, 219–222.
2. Biggs, J. (2012). Enhancing learning through constructive alignment. In J.R. Kirby & M.J. Lawson (Eds.), *Enhancing the Quality of Learning: Dispositions, Instruction, and Learning Processes* (pp. 117–136). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Dalton-Puffer, C. (2011). Content-and-language integrated learning: From practice to principles?. *Annual Review of Applied Linguistics*, 31, 182–204.
4. Dudley-Evans, T., & St John, M.J. (1998). *Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Dvoret'skaya, Yu.Yu. (2004). Problemy obreteniya professional'noy kompetentnosti v molodosti. V knig. *Stanovlenie i realizatsiya subyektivnosti lichnosti v professii: materialy II Vserossiyskoy nauchno-prakticheskoy konferentsii* (ss. 193–196). – Krasnodar: Kubanskiy gosudarstvennyy universitet.
6. Epstein, R.M., & Hundert, E.M. (2002). Defining and assessing professional competence. *JAMA*, 287(2), 226–235.
7. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for specific purposes: A learning-centered*

- approach. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Hyland, K. (2000). *Disciplinary discourses: Social interactions in academic writing*. London: Longman.
  9. Hyland, K. (2004). *Genre and second language writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
  10. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
  11. Candlin, C.N., & Candlin, S. (2003). Health care communication: A problematic site for applied linguistics research. *Annual Review of Applied Linguistics*, 23, 134–154.
  12. Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
  13. Coyle, D. (2006). Content and language integrated learning: Motivating learners and teachers. *Scottish Languages Review*, 13(5), 1–18.
  14. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
  15. Leontyev, A.A. (2003). *Osnovy psikholingvistiki* (3-e izd.). Moskva: Smysl.
  16. Llinares, A., Morton, T., & Whittaker, R. (2012). *The roles of language in CLIL*. Cambridge: Cambridge University Press.
  17. Magzoub, M.E., Taha, M.H., Waller, S. (2024). Going beyond competencies: Building blocks for a patient- and population-centered medical curriculum. *Medical Teacher*, 46(12), 1568–1574.
  18. Marsh, D. (2002). *CLIL/EMILE – The European dimension: Actions, trends and foresight potential*. Brussels: European Commission.
  19. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M.J. (2008). *Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education*. Oxford: Macmillan Education.
  20. Milosavljević, N., Vuletić, A., & Jovković, L. (2015). Learning medical English: A prerequisite for successful academic and professional education. *Srpski arhiv za celokupno lekarstvo*, 143(3–4), 237–240.
  21. Nikula, T. (2007). Speaking English in Finnish content-based classrooms. *World Englishes*, 26, 206–223.
  22. Pérez-Cañado, M.L. (2011). CLIL research in Europe: Past, present, and future. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 15(3), 315–341.
  23. Potapova, V.Yu. (2021). Otbor predmetno-tematicheskogo soderzhaniya obucheniya inostrannomu yazyku dlya professional'nogo obshcheniya v meditsinskom vuze v ramkakh predmetno-integririvannogo obucheniya. *Vestnik Tambovskogo universiteta. Seriya: Gumanitarnye nauki*, 26(193), 29–37.
  24. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. *Cognitive Science*, 12, 257–285.
  25. Swain, M. (2005). The output hypothesis: Theory and research. In E.Hinkel (Ed.), *Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning* (pp. 495–508). London: Routledge.
  26. Tomak, T., & Šendula-Pavelić, M. (2017). Motivation towards studying English for specific purposes among students of medical and healthcare studies. *JAHHR*, 8(2), 151–170.
  27. Vepreva, T.B., & Pechinkina, O.V. (2021). Angliyskiy yazyk dlya studentov-medikov: sovremennyy etap i perspektivy razvitiya. *Crede Experto: transport, obshchestvo, obrazovanie, yazyk*, 1, 170–187.
  28. Yurchuk, G.V., Yurchuk, V.A., & Nosova, L.G. (2014). Razvitie klinicheskogo myshleniya u studentov meditsinskogo vuza pri obuchenii inostrannomu yazyku. *Sibirskiy pedagogicheskiy zhurnal*, 5, 33–37.
  29. Zimnyaya, I.A. (2004). *Klyuchevye kompetentsii kak rezul'tativno-tselevaya osnova kompetentnostnogo podkhoda v obrazovanii*. Moskva: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov.

30. Chistobaeva, L.V., & Kiseleva, Ye.V. (2019). K voprosu ob ispol'zovanii metodiki predmetno-yazykovogo integrirovannogo obucheniya (CLIL) v protsesse podgotovki obuchayushchikhsya po napravleniyu «Neftegazovoe delo» (uroven' bakalavriata). *Vestnik Maykopskogo gosudarstvennogo tekhnologicheskogo universiteta*, 1, 126–134.

## REFERENCES

1. Bashirova, Kh.A., Magomedova, M.A., & Ragimova, V.M. (2022). The role of a foreign language in the formation of professional competence of medical students. *World of Science, Culture, Education*, (1), 219–222.
2. Biggs, J. (2012). Enhancing learning through constructive alignment. In J.R. Kirby & M.J. Lawson (Eds.), *Enhancing the Quality of Learning: Dispositions, Instruction, and Learning Processes* (pp. 117–136). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
4. Candlin, C.N., & Candlin, S. (2003). Health care communication: A problematic site for applied linguistics research. *Annual Review of Applied Linguistics*, 23, 134–154.
5. Chistobaeva, L.V., & Kiseleva, Y.V. (2019). On the use of content and language integrated learning (CLIL) methodology in training students in the field of “Oil and Gas Engineering” (bachelor’s level). *Bulletin of Maikop State Technological University*, 1, 126–134.
6. Council of Europe. (2020). *Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume*. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
7. Coyle, D. (2006). Content and language integrated learning: Motivating learners and teachers. *Scottish Languages Review*, 13(5), 1–18.
8. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *CLIL: Content and language integrated learning*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Dalton-Puffer, C. (2011). Content-and-language integrated learning: From practice to principles?. *Annual Review of Applied Linguistics*, 31, 182–204.
10. Dudley-Evans, T., & St John, M.J. (1998). *Developments in English for specific purposes: A multi-disciplinary approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Dvoret'skaya, Y.Y. (2004). Problems of acquiring professional competence in youth. In *Formation and realization of personal subjectivity in the profession: Proceedings of the II All-Russian scientific and practical conference* (pp. 193–196). Krasnodar: Kuban State University.
12. Epstein, R.M., & Hundert, E.M. (2002). Defining and assessing professional competence. *JAMA*, 287(2), 226–235.
13. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for specific purposes: A learning-centered approach*. Cambridge: Cambridge University Press.
14. Hyland, K. (2000). *Disciplinary discourses: Social interactions in academic writing*. London: Longman.
15. Hyland, K. (2004). *Genre and second language writing*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
16. Leontyev, A.A. (2003). *Foundations of psycholinguistics* (3rd ed.). Moscow: Thought.
17. Llinares, A., Morton, T., & Whittaker, R. (2012). *The roles of language in CLIL*. Cambridge: Cambridge University Press.
18. Magzoub, M.E., Taha, M.H., Waller, S. (2024). Going beyond competencies: Building blocks for a patient- and population-centered medical curriculum. *Medical Teacher*, 46(12), 1568–1574.
19. Marsh, D. (2002). *CLIL/EMILE – The European dimension: Actions, trends and foresight potential*. Brussels: European Commission.
20. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M.J. (2008). *Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education*. Oxford: Macmillan Education.

21. Milosavljević, N., Vuletić, A., & Jovković, L. (2015). Learning medical English: A prerequisite for successful academic and professional education. *Serbian Archives of Medicine*, 143(3–4), 237–240.
22. Nikula, T. (2007). Speaking English in Finnish content-based classrooms. *World Englishes*, 26, 206–223.
23. Pérez-Cañado, M.L. (2011). CLIL research in Europe: Past, present, and future. *International Journal of Bilingual Education and Bilingualism*, 15(3), 315–341.
24. Potapova, V.Y. (2021). Selection of subject-specific content for teaching a foreign language for professional communication in a medical university within the framework of content and language integrated learning. *Tambov University Review. Series: Humanities*, 26(193), 29–37.
25. Swain, M. (2005). The output hypothesis: Theory and research. In E.Hinkel (Ed.), *Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning* (pp. 495–508). London: Routledge.
26. Sweller, J. (1988). Cognitive load during problem solving: Effects on learning. *Cognitive Science*, 12, 257–285.
27. Tomak, T., & Šendula-Pavelić, M. (2017). Motivation towards studying English for specific purposes among students of medical and healthcare studies. *JAHHR*, 8(2), 151–170.
28. Vepreva, T.B., & Pechinkina, O.V. (2021). English for medical students: The current stage and development prospects. *Crede Experto: Transport, Society, Education, Language*, 1, 170–187.
29. Yurchuk, G.V., Yurchuk, V.A., & Nosova, L.G. (2014). Development of clinical thinking in medical university students in the process of learning a foreign language. *Siberian Pedagogical Journal*, 5, 33–37.
30. Zimnyaya, I.A. (2004). *Key competencies as the result-oriented basis of the competence-based approach in education*. Moscow: Research Center for the Problems of Quality of Specialist Training.